

**FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**Boshlang'ich ta'lism o'qituvchilarining kasbiy mahorati va faoliyat
samaradorligini oshirish.**

Olimov Temir Hasanovich

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Zikrilloyeva Malika Olimovna

Osiyo Xalqaro Universiteti "Ta'lism va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lism)" mutaxassisligi 2-bosqich magistri.

Annotatsiya: Maqolada innovatsion ta'lism muhitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini uzlucksiz oshirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Аннотация: В статье исследуются педагогические возможности и условия непрерывного профессионального развития учителей начальных классов в инновационной образовательной среде.

Abstract: The article examines the pedagogical opportunities and conditions for continuous professional development of primary school teachers in an innovative educational environment.

O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yonaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

2022 — 2026-Yillarda Xalq Ta'limi Rivojlantirish Bo'yicha Milliy Dasturni Tasdiqlash To'G'Risida (Toshkent Sh.2022-Yil 11-May,Pf-134-Son)

Quyidagilar "Rivojlantirish dasturi"ning asosiy yo'nalishlaridan ba'zi birlari etib belgilandi

- maktab ta'limga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;
- jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish;
- o'qituvchilarning yoshlarga ta'lism va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

- umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg'or maktab direktori va namunali o'qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish. Bundan tashqari, Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari negizida Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari tashkil etish.

A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti negizida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo'nalishida:

2022-yil 1-sentabrga qadar Pedagogika markazlariga aniq va tabiiy fanlar bo'yicha malakali xorijiy mutaxassislarini jalg qilinish bu albatta o'qituvchilarning tajriba almashishiga juda katta hissa qo'shishi puxta reja qilingan.

2022-yil 1-iyulga qadar Pedagogika markazlari huzurida xorijiy mutaxassislar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari hamda Pedagogika markazlarining malakali xodimlaridan iborat bo'lgan trenerlar guruhlarini shakllantirilishi haqida gapirib o'tildi va bu kezi kelganda ham vaqtadan tejash va keng ko'lamli bilim berishga sharoit yaratadi.

2022-yil yakuniga qadar trenerlar guruhlari bilan birgalikda joylarga chiqqan holda kamida 20 foiz umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan sayyor o'quv mashg'ulot va seminartreninglar o'tkazilishini ta'minlanishi esa innovatsion vositalardan qiynalmasdan zamon bilan hamnafas bo'lishda qo'l keladi.Bundan tashqari,pedagog kadrlarning malakasini oshirishga bevosita jalg qilingan trenerlarga ularning ish faoliyati natijasiga qarab, oylik ish haqiga 100 foizgacha miqdorda qo'shimcha ustama haq to'lab borilishi haqida aytib o'tilgan edi.Maktab o'qituvchilari uchun "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasida pedagogik faoliyatdan ajralmagan holda amalga oshiriladigan qo'shimcha individual malaka oshirish kurslarini joriy etildi.Zamonaviy metodikalarga asoslangan ta'lim dasturlari va darsliklarni xarid qilish hamda umumiy o'rta ta'lim tizimiga joriy qilish choralarini ko'riliishi farmonda belgilab qo'yilgan.Shuni qo'shimcha qila olamizki,malakali xorijiy mutaxassislarini jalg qilgan holda Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Pedagogika markazlarining o'quv-rejalari va dasturlarini to'liq qayta ko'rib chiqsin hamda xalqaro talablar asosida takomillashtirish ham ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda 10 mingdan ortiq maktablar bor.So'ngi yillarda ulardagi shart-sharoitlarni yaxshilash,o'quvchi va o'qituvchilarning o'rnini ko'paytirish ishlari

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

olib borilyabdi. Shu bilan birga, bu ishlarni izchil davom ettirish zarur. Ta'lism sifatini oshirish bu uzlusiz sharayondir. So'ngi yillarda barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan maktablar barpo etilyabdi. Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslasjhan maktablar xususiy maktablar hayotimizga kirib keldi. Zamonaviy, ammo milliy ruhdagi darsliklar yaratilmoqda. O'qituvchi va murabbiylarning mehnat faoliyati sharoitlarini oshirishda alohida e'tibor qaratilyabdi. Xususan, o'tgan davrlarga nisbatan oyliklar o'rtacha 2,5 barabarga oshdi, milliy hamda xalqaro sertifikatga ega xodimlar qo'shimcha rag'batlantirilyabdi. Pedagoglarning bilim va mahoratiga e'tabor qaratilar ekan, malaka oshirish markazlari eskicha ishlayotgani, ilmiy salohiyati yuqori darajada emasligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimiz mamlakatlarida xorijiy til bo'yicha dasturlarni yanayam takomillashtirish, oily o'quv yurtlari bilan uyg'unlashtirish zarur, shundagina barcha o'qituvchilar chet ellik hasbkabslari bilan bemalol fikr, tajriba almasha oladilar.

Xorijlik olimlar jahon andozalariga mos ta'limga amaliyoti, tizimi, ilg'or texnologiyalari va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy usullari hamda o'zlarining ilmiy – tadqiqot izlanishlari haqida ma'lumotlar beradilarki, ular orqali tinglovchilarimiz hozirgi davrning eng yangi ilg'or texnologiyalari bilan tanishadilar, tajriba almashadilar. O'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammosini nazariya va amaliyotdagi holatidan kelib chiqib quyidagi variantlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Mustaqil o'qib bilim orttirish — ta'limga darajasi va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq o'qitiladigan fan bo'yicha yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarining pedagog kadrlar tomonidan mustaqil o'zlashtirilishidir.

Mustaqil o'qib bilim orttirish shaklida malaka oshirishni barqaror yuqori professional reytingga ega bo'lgan, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashning amaliy ko'nikmalarini egallab olgan, o'zini o'zi kamol toptirish jarayoniga tanqidiy va ijodiy yondoshishga qodir bo'lgan pedagoglar uchun tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

Ochiq o'quv mashg'ulotlari — zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'qitishning interaktiv metodlari qo'llanilgan holda akademik guruhlarda jadval bo'yicha o'tkaziladigan oldindan e'lon qilingan muammo yoki innovatsiya mavzusi bo'yicha mashg'ulotdir.

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA

Ochiq o'quv mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, o'qitishning interaktiv metodlarini puxta ishlash va o'quv jarayoniga joriy etish uchun tajriba maydoni, yosh pedagoglar uchun pedagogik mahorat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy va ilmiy-metodik seminarlar, konferensiyalar hokazolarda qatnashish — pedagog kadrlarning pedagogika fani va amaliyotining, o'qitish metodologiyasi va texnologiyasining ta'lismuassasalarida muhim muammolarni hal etishga va o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan dolzARB mavzulari bo'yicha ilmiy yoki ilmiy-metodik ma'ruzalar (axborotlar) bilan chiqishidir.

Pedagog kadrlarning yirik ilmiy yoki ilmiy-metodik seminarlar, konferensiyalarda qatnashishi ularga axborot va ish tajribasi bilan almashish, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy tendensiyalari va ilg'or ta'lismtexnologiyalari bilan tanishish imkoniyatini beradi, ularning kasb malakasi darajasining o'sishiga ko'maklashadi.

Malaka oshirish jarayonida olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasida hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lismaktabi o'qituvchilarida quyidagi pedagogik mahoratlar yetishmasligi kuzatiladi:

- darsga maqsadni aniq qo'ya olmaslik;
- darsni rejalashtirishda qiyinalish;
- kundalik reja dars ishlanmasiga ahamiyat bermaslik;
- ko'rgazma va tarqatma materiallardan kam foydalanish;
- tayyorlangan ko'rgazmalarni to'la ko'rsata olmaslik;
- interfaol usullarni juda kam qo'llash;
- savollarni to'g'ri tuzish, o'z o'rnida berish tartib-qoidalariga e'tibor qilmaslik;
- interfaol metodlarni to'g'ri qo'llay olmaslik;
- laboratoriya jihozlari yetishmaganda o'rniga, multimedya ko'rinishida namoyish qilishni bilmaslik; - dars jarayonida xorijiy til o'qituvchilarini ko'proq o'zbek tilida so'zlashishi;
- barcha o'quvchilarni darsga jalb eta olmaslik;
- internetdan foydalana olmaslik;
- o'qituvchi ovoz tembrining haddan ziyod balandligi;
- ta'limdagi innovatsiyalardan xabardor emaslik;

Xulosa qilib aytganda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning yuqorida bayon qilingan asosiy turlari va shakllari uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlari uchun umumiy hisoblanadi. Shu bilan

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

birga, ta'limning har bir turi alohida holda ularga kadrlar tayyorlashning xususiyati bilan bog'liq ravishda pedagog kadrlar malakasini oshirishning boshqa shakllariga ham ega bo'lishi mumkin.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
- 2.Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
- 3.Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
- 4.Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
- 5.Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.
- 6.Berdiqulova Nasiba Erkinjinovna - BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA INNOVATSION VA INTEGRATSION TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLAŠHTIRISH (2023)
- 7.<https://president.uz/oz/lists/view/5199>
- 8.Eliboya Lola Sulaymonovna - BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI UZLUKSIZ OSHIRISH